

## **DARIY TILIDAGI BIRIKMA IQTISODIY TERMINLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI**

**Robiyaxon Ibrohimxo‘ja qizi Sirojiddinova**

TDSHU Lingvistika (dariy) mutaxassisligi 2-kurs magistranti

robiasirojiddinova22@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada dariy tili iqtisodiy terminologiyasida qo‘llaniladigan birikmali terminlarning lingvistik xususiyatlari tizimli va struktur jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda birikmali terminlarning shakllanish omillari, ularning semantik tuzilishi, komponentlararo munosabatlari hamda iqtisodiy terminologik tizimdagi o‘rni yoritib beriladi. Shuningdek, dariy tilidagi iqtisodiy sohada keng qo‘llaniladigan ikki va ko‘p komponentli birikma terminlarning turlari aniqlanib, ularning ilmiy matnlardagi funksional ahamiyati ochib beriladi. Maqola natijalari iqtisodiy terminlarni izchil qo‘llash, ularni tartibga solish hamda me‘yorlashtirish jarayonida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Afg‘oniston, dariy tili, iqtisod, iqtisodiy terminlar, moliya, birikma termin, o‘zlashma termin, ma‘no kengayishi va ma‘no torayishi.*

### **ABSTRACT**

*This article systematically and structurally analyzes the linguistic features of compound terms used in Dari economic terminology. The study sheds light on the factors of formation of compound terms, their semantic structure, intercomponent relationships, and their place in the economic terminological system. Also, the types of two- and multi-component compound terms widely used in the Dari economic sphere are identified, and their functional significance in scientific texts is revealed. The results of the article serve as an important theoretical basis in the process of consistent use of economic terms, their regulation and standardization.*

***Keywords:** Afghanistan, Dari language, economy, economic terms, finance, compound term, appropriation term, expansion of meaning and narrowing of meaning.*

### **KIRISH**

O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi munosabatlar, ayniqsa savdo-iqtisodiy sohada, so‘nggi yillarda faol rivojlanib bormoqda. Ikki davlat o‘rtasida transport-logistika aloqalari, jumladan temiryo‘l va tranzit yo‘nalishlari orqali savdo hajmini oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlash va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish ikki tomonlama munosabatlarning

asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu omillar dariy tili iqtisodiyot sohasiga oid terminologik leksikaning kundan kunga ortishiga olib kelmoqda. Maqolada dariy tili iqtisodiy terminologiyasi tarkibi ham birikma terminlar va ularning qo‘llanilishi asiyat misollari orqali o‘rganilgan. Dariy tilidagi internet saytlari, shuningdek, matbuot materiallaridan olingan iqtisodiyotga oid 225 ta termin struktur - semantik, o‘z va o‘zlashgan qatlam hamda yasaliush usullariga ko‘ra tahlil qilingan.

Terminologiya tilshunoslikning muhim va serqirra yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u ilmiy bilish jarayonida alohida o‘rin egallaydi hamda nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Hozirgi davrda terminshunoslik mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanib, jahon miqyosida faol rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biriga aylangan. O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi, ayniqsa iqtisodiy va madaniy sohalarda hamkorlikning kengayishi dariy tilida iqtisodiyotga oid terminlarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Natijada ushbu terminologik qatlamni tizimli ravishda o‘rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari tilning leksik tizimiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Iqtisodiy sohada yuz berayotgan yangilanishlar yangi tushunchalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lib, ular ko‘pincha boshqa tillardan, xususan g‘arb tillaridan o‘zlashgan birliklar orqali ifodalanmoqda. Shu bois dariy tilidagi iqtisodiy terminologiyani, ayniqsa birikma terminlarni o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Yevropa terminologiya maktabida terminlarning struktur va semantik xususiyatlari, jumladan birikma terminlar masalasi E. Wüster<sup>1</sup>, M. T. Cabré<sup>2</sup>, J. C. Sager<sup>3</sup>, K. Kageura<sup>4</sup> va R. Temmerman<sup>5</sup> kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Xususan, Wüster tomonidan ishlab chiqilgan umumiy terminologiya nazariyasi terminlarning tizimliliigi va standartlashuviga asos bo‘lgan bo‘lsa, Cabré terminologiyani kommunikativ va dinamik hodisa sifatida talqin qiladi. Kageura esa terminlarning komponent tarkibi va ularning kombinator xususiyatlarini tahlil qiladi.

O‘zbek tilshunosligida terminologiya, jumladan birikma terminlar masalasi bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, A. Hojiyev<sup>6</sup>, Sh. Rahmatullayev<sup>7</sup> kabi

<sup>1</sup> Wüster, E. *Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie*. Berlin: Springer, 1979.

<sup>2</sup> Cabré, M. T. *Terminology: Theory, Methods and Applications*. Amsterdam: John Benjamins, 1999.

<sup>3</sup> Sager, J. C. *A Practical Course in Terminology Processing*. Amsterdam: John Benjamins, 1990.

<sup>4</sup> Kageura, K. *The Dynamics of Terminology: A Descriptive Theory of Term Formation*. Amsterdam: John Benjamins, 2002.

<sup>5</sup> Temmerman, R. *Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach*. Amsterdam: John Benjamins, 2000.

<sup>6</sup> Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. – Toshkent: Fan, 1996. – 46 b.

<sup>7</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Darslik. – Toshkent: Universitet, 2006.

tilshunoslar o‘zbek leksikologiyasi va terminologiyasining umumiy masalalarini tadqiq etgan bo‘lsa, H. Dadaboyev<sup>8</sup> va I. Ermatov<sup>9</sup> terminologik tizim va uning shakllanish xususiyatlarini tahlil qilgan.

Birikma terminlarning struktur va semantik xususiyatlari esa alohida tadqiqot obyekt sifatida Ubaydullayeva<sup>10</sup> tomonidan o‘rganilib, unda terminlarning sintaktik usul bilan hosil bo‘lishi, komponent tarkibi va modellari batafsil yoritilgan.

Bugungi kunga kelib Afg‘oniston Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘rnatilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy-ma‘rifiy aloqalari negizida o‘ziga xos yangi davrni boshidan kechirmoqda. Afg‘on xalqi eng so‘nggi texnika va texnologiyalar bilan oshno bo‘lmoqda, ularni kundalik hayotda qo‘llash imkoniyati yuzaga kelmoqda. Albatta, bu jarayonlar, o‘z navbatida, tilda o‘z lisoniy ifodasini topmoqda.

Maqolada dariy tilidagi internet saytlari, matbuot materiallari shuningdek, “Международные экономические термины<sup>11</sup>”, “Dictionary of International Customs and Trade Terms (English-Dari-Uzbek-Pashto) (Xalqaro bojxona va tijorat terminlari lug‘ati (ingliz-dari-o‘zbek-pushtu)<sup>12</sup>”, “Iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati<sup>13</sup>”da uchragan iqtisodiyotga oid materiallardan 225 ta termin tahlilga tortildi. To‘plangan materiallarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular sistem-struktur va komponent tahlil metodlari asosida o‘rganildi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Birikma terminlar fan va texnika, ishlab chiqarish sohalarining barchasida ham tub, yasama va qo‘shma terminlardan miqdori jihatidan ko‘pligi bilan ajralib turadi. Iqtisodiy terminologiya sistemasida ham aynan shunday holni ko‘rish mumkin. Masalan: کارت اعتباری *kârt-e e‘tebâri* – ‘kredit karta’, سود سهام *sud-e sahâm* – ‘dividend’, تجارت دیجیتالی *tejârat-e dijîtâl* – ‘raqamli savdo’, سندیکاهای کارگری *sendikâhâ-ye kârgari* – ‘kasaba uyushmalari’, بیانس تجارت *bêlâns-e tejârat* ‘savdo balansi’, حق بیمه *haqq-e bima* – ‘sug‘urta haqi’, قانون کار *qanun-e kâr* – ‘mehnat qonunchiligi’, اسناد بهادار *asnâd-e bahâdâr* – ‘qimmatli qog‘ozlar’.

Gibrid terminlar zamonaviy axborot vositalari hamda globallashuv jarayonining shiddat bilan dunyoga yoyilishi natijasida so‘nggi yillardan buyon yuzaga chiqqanligi alohida ahamiyat kasb etadi. XX asrlarning o‘rtalarida ular deyarli barcha

<sup>8</sup> Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019. – 118 b.

<sup>9</sup> Ermatov I. O‘zbek tilshunoslik terminologiyasi. Monografiya. – Toshkent, 2021.

<sup>10</sup> Ubaydullayeva U.A. Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostoni terminlarining lingvo-kognitiv tahlili. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Jizzax, 2024. – 137 b.

<sup>11</sup> Голиков А., Черномоз П. Международные экономические термины: словарь-справочник Учебное пособие. – К.: Центр учебной литературы, 2008. – 376 с.

<sup>12</sup> Humayun M.N. Xalqaro bojxona va tijorat terminlari lug‘ati (ingliz-dariy-o‘zbek-pushtu). – Termiz: Surxon ilm nashri, 2024. – 104 b.

<sup>13</sup> Mustafakulov Sh.I. Iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati. – T., 2019.

terminologik lug'atlarda voqealanishni boshladi va faollik jihatdan hozirgi kunda ham o'zining alohida o'rniga egadir. Birikma gibrid terminlar 2 qismdan: hokim bo'lak va tobe so'zdan iborat bo'lsa ham, yaxlit bir ma'noni ifodalaydi. N.Qosimovning ko'rsatilgan asarida qo'shma terminlarning bir ko'rinishi sifatida gibrid terminlar ham ajratilgan. Uning fikricha, "gibrid terminlar" o'zbek ilmiy-texnikaviy terminologiyasida keyingi yillarda paydo bo'lgan yangi tipdagi qo'shma terminlar. Gibrid so'zi keng ma'noda "turli til elementlaridan tuzilgan "duragay" so'zlar<sup>14</sup>.

Dariy tilida iqtisodiy birikma terminlar tarkibida gibrid terminlar ko'p uchraydi. Ushbu jamlangan birikma gibrid terminlar o'zaro izofa orqali bog'langan birikmalardir. Bular tarkibiy qismlari o'z va o'zlashgan qatlamdan iborat.

To'plangan misollarimizni tahlil qilish jarayonida gibrid terminlarni "dariy + arab", "dariy + yevropa", "arab + dariy", "arab + arab", "yevropa + dariy", "yevropa + arab" va "arab + yevropa" o'zlashmalari modelida birikib kelgan holda uchratdik.

Masalan:

بر اساس قانون کار نیز فیصد حق بیمه تامین اجتماعی اتباع خارجی ۳۰ فیصد از دستمزد و حقوق کارگر است<sup>15</sup>.

*Bar asâs-e qânun-e kâr nêz fisad haq-qe bima tâmin-e ejtemâyi abtâ-ye xâreji 30 fisad az dastmozd wa hoquq-e kârgar ast.*

'Mehnat qonunchiligiga ko'ra, chet el fuqarolari uchun ijtimoiy sug'urta badalining foizi ishchining ish haqi va ish haqining 30 foizini tashkil qiladi'.

قانون qânun arab tilidan o'zlashgan bo'lib, davlat va milliy kengash tomonidan jamiyatda intizomni nazorat qilish va uni idora qilish uchun joriy etilgan dastur va qarorlar ma'nosini ifodalayadi<sup>16</sup>. Dariycha کار kâr<sup>17</sup> so'zi bilan birikib kelganda, 'mehnat qonunchiligi' termini ma'nosini ifodalaydi.

بانک جهانی: سکتور خصوصی می تواند با سقوط اقتصادی افغانستان مبارزه کند.

*Bânk-e Jahâni: sektor-e xosusi mē tavânad bâ soqut-e eqtesâdi-ye Afyonestân mobâreza konad.*

'Jahon banki: Xususiy sektor Afg'onistonning iqtisodiy inqiroziga qarshi kurasha oladi'<sup>18</sup>.

Yuqorida keltirilgan gapdagi سقوط soqut so'zi arab tilidan o'zlashgan termin bo'lib, "qulash" degan ma'noni anglatadi<sup>19</sup>. اقتصادی so'zi اقتصاد + ی (yâ-ye nakara)

<sup>14</sup> N.Qosimov "O'zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasi masalalari Toshkent, 1985.-B.78

<sup>15</sup> <https://www.tolonews.com/fa/afghanistan>

<sup>16</sup> ح. عمید. فرهنگ فارسی. تهران. - ۱۳۸۹. ص. ۸۰۹

<sup>17</sup> ح. عمید. فرهنگ فارسی. تهران. - ۱۳۸۹. ص. ۸۲۸. کار - (په) پیشه، شغل، عمل

<sup>18</sup> <https://8am.media/fa/economics/>, 03.05.2024

<sup>19</sup> ح. عمید. فرهنگ فارسی. تهران. - ۱۳۸۹. ص. ۶۵۴

qo‘shimchasining qo‘shilishi natijasida dariy tilining so‘z yasalishi imkoniyatlari hisobiga dariycha so‘z hosil qiladi. Dariy tilidagi اقتصادی *eqtesâdi* so‘zi bilan qo‘llanganda “iqtisodiy inqiroz” shaklida ishlatiladi.

**سندیکاهای کارگری** چندین میلیون تن را به جاده ها هدایت کردند و از دولت خواستار عقب نشینی در مورد قانون بازنشسته گی شدند<sup>20</sup>.

*Sendikâhâ-ye kârgari* čandin mêlyun tanrâ ba jâdahâ hedâyat kardand wa az dowlât xâstâr aqabnešini dar mawred-e qânun bâznešastagi šodand.

**‘Kasaba uyushmalari** hukumatdan pensiya to‘g‘risidagi qonundan voz kechishni talab qilib, bir necha million odamni ko‘chalarga olib chiqdi’.

سندیکاهای کارگری *sendikâhâ-ye kârgari* birikmasidagi سندیکا *sendikâ* so‘zi fransuz tilidan o‘zlashgan bo‘lib (fransuzcha “syndicat”), “odamlarning haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan uyushma yoki tashkilot” degan ma‘noni anglatadi<sup>21</sup>. Mazkur so‘zga ha *hâ* ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilib, keyingi so‘zga izofa orqali bog‘lanmoqda Dariy tilida odatda, dariycha کارگری *kârgari* so‘zi bilan birikib, “kasaba uyushmalari” ma‘nosida iste‘molda qo‘llanadi<sup>22</sup>.

Quyidagi gapda berilgan misol hozirgi kunda innovatsiya va texnologiyalarning barcha sohalarida ko‘p uchraydigan so‘z hisoblanadi. دیجیتال *dijitâl* so‘zi ingliz tilidan o‘zlashgan bo‘lib (inglizcha “digital”) “raqamli texnologiya” degan ma‘noni anglatadi. Arab tilidan o‘zlashgan تجارت *tejârat* so‘zi bilan birikib kelganda esa “raqamli savdo” ma‘nosida qo‘llanadi<sup>23</sup>.

بریتانیا ابراز امیدواری کرده است که توافق تجاری جدید، راه را برای افزایش **تجارت دیجیتالی** و ساده سازی روند پیچیده کنونی هموار کند.

*Britâniyâ ebrâz-e omêdwârî karda ast ke tawâfeq-e tejâri-ye jadid, râh râ barâye afzâyêš-e tejârat-e dijitâl wa sodasâzi rawand pičida-ye konuni hamwâr konad.*

‘Britaniya yangi savdo kelishuvi **raqamli savdoni** oshirishga yo‘l ochishiga va hozirgi murakkab jarayonni soddalashtirishiga umid bildirdi<sup>24</sup>.’

کسر **بیلائس تجارت** یکی از اساسی ترین معیاری است که اقتصاد کشورها و چگونه گی صادرات و واردات میان کشور مورد نظر و سایر کشورها را نشان می دهد<sup>25</sup>.

*Kasr-e bêtâns-e tejârat* yaki az asâsitarin me‘yâri ast ke eqtesâd-e kešwarhâ wa čegunagi wâredât wa sâderât miyân-e kešwar-e mawred-e nazar wa sâyer kešwarhârâ nešân mê dehad.

<sup>20</sup> <https://www.tolonews.com/fa/afghanistan>

<sup>21</sup> ح. عمید. فرهنگ فارسی. تهران. - ۱۳۸۹. ص. ۶۶۶

<sup>22</sup> ح. عمید. فرهنگ فارسی. تهران. - ۱۳۸۹. ص. ۶۶

<sup>23</sup> <https://en.m.wikipedia.org/wiki/Digital>

<sup>24</sup> <https://www.tolonews.com/fa/afghanistan>

<sup>25</sup> <https://www.tolonews.com/fa/afghanistan>

‘**Savdo balans**ining taqchilligi mamlakatlar iqtisodiyoti va ushbu mamlakat va boshqa davlatlar o‘rtasidagi import va eksport holatini ko‘rsatadigan eng asosiy mezonlardan biridir’.

طالبان *bêlâns-e tejârat* “savdo balansi” birikma teminidagi بیلانس *bêlâns* so‘zi fransuz tilidan o‘zlashgan bo‘lib, fransuzcha “bilan” so‘zi “balanslar varaqasi” degan ma‘noni anglatadi<sup>26</sup>. Dariy tilida arab tilidan o‘zlashgan تجارت *tejârat* so‘zi bilan birikib kelganda aynan ‘savdo balansi’ termini ma‘nosida ifodalanadi.

آزاد بازار *bâzâr-e âzâd* ‘erkin bozor’ terminida semantik torayish mavjud, chunki u oddiy bozor so‘zining umumiy ma‘nosidan chiqib, aniq iqtisodiy-siyosiy modelga xos maxsus ma‘noga ega bo‘lgan. Bu yerda faqat bitta aniq iqtisodiy model — davlat aralashuvi minimal bo‘lgan bozor tizimini anglatadi. Umumiy bozor tushunchasidan tor, maxsus iqtisodiy kategoriya ajralib chiqqan.

طالبان: ایران خواستار ایجاد بازار آزاد مشترک در ۲۰ کیلومتری مرز با افغانستان است<sup>27</sup>.

*Tâlebân: Irân xâstâr-e ijâd-e bâzâr-e âzâd-e moštarak dar bist kilumetari marz-e bâ Afyânestân ast.*

‘Tolibon: Eron Afg‘oniston bilan chegaradan 20 kilometr uzoqlikda qo‘shma **erkin bozor** yaratmoqchi’.

سیاه بازار *bâzâr-e seyâh* ‘qora bozor’ terminidagi سیاه *seyâh* ‘qora’ so‘zi bu o‘rinda rangni emas, ‘yashirin’, ‘noqonuniy’ yoki ‘ruxsatsiz’ degan ma‘nolarni ifodalamoqda. Ma‘no torayishi jihatdan nazar tashlaydigan bo‘lsak, noqonuniy savdo turi, davlat nazoratidan yashirin, litsenziyasiz yoki taqiqlangan mahsulotlar savdosi kabi ma‘nolarni anglatadi. ‘Qora bozor’ ham aynan iqtisodiy-xuquqiy kontekstda ixtisoslashib, termin sifatida faqat bir sohaga bog‘langan.

پاکستان: شورای امنیت تدابیر برای مقابله با بازار سیاه سلاح در افغانستان اتخاذ کند<sup>28</sup>.

*Pâkestân: šôrâ-ye amniyat tadâbir barâye maqâbela bâ bâzâr-e seyâh-e salâh dar Afyânestân ettexâz konad.*

‘Pokiston: Xavfsizlik Kengashi Afg‘onistondagi qurol-yarog‘ning **qora bozor**iga qarshi kurashish choralarini ko‘rishi kerak’.

این عدد فقط یک آمار خشک نیست؛ معنایش این است که ظرفیت اقتصادی جامعه محدود است، قدرت

خرید پایین است و کوچکترین شوک اقتصادی می تواند هزاران خانواده را به زیر خط فقر بکشانند<sup>29</sup>.

*In adad faqat yak âmâr-e xošk nêst; ma‘nâyaš in ast ke zarfiyat-e eqtesâdi-ye jâmea mahdud ast; qodrat-e xarid pâyin ast wa kôçaktarin šôk-e eqtesâdi mê tawânad hazârân xânwâda râ ba zêr-e xatt-e faqer bekašânad.*

ح. عمید. فرهنگ فارسی. تهران. ۱۳۸۹. ص. ۲۵۸. <sup>26</sup>

<sup>27</sup> <https://8am.media/fa/taliban-iran-wants-to-establish-a-common-free-market-in-20-kilometers-of-the-border-with-afghanistan/>

<sup>28</sup> <https://8am.media/fa/pakistan-security-council-should-take-measures-to-combat-the-black-market-of-weapons-in-afghanistan/>

<sup>29</sup> <https://8am.media/fa/afghanistan-and-kyrgyzstans-private-sectors-sign-trade-agreements-worth-over-156-million/>

‘Bu raqam shunchaki quruq statistika emas; bu jamiyatning iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan, xarid qobiliyati past va eng kichik **iqtisodiy zarba (shok)** minglab oilalarni **qashshoqlik chegarasidan** pastga tushirishi mumkinligini anglatadi’.

در چنین زمینه‌ای انتظار می‌رود **الگوی مصرف** جامعه با سطح درآمد هماهنگ باشد، اما آنچه دیده می‌شود چیز دیگری است<sup>30</sup>.

*Dar čenin zaminai entezâr mê rawad olgu-ye masraf-e jâmea bâ sath-e darâmad hamâhang bâšad, amâ ânçe dida mê šawad čiz-e digari ast.*

‘Bunday sharoitda jamiyatning **iste’mol modeli** daromad darajasiga mos kelishi kutilmoqda, ammo ko‘rinib turganidek, boshqa narsa’.

Uch va undan ortiq komponentli birikma terminlar:

*mantaqa-ye xaraji* تجارت منطقه, “aksiz”, *mâliyât-e yayr-e mostaqim* مستقیم غیر مالیات *tejârat-e xâreji* “tashqi savdo zonasi”, *hajm-e tejârat-e dâjâneba* دوجانبه تجارت حجم, “ikki tomonlama savdo hajmi”, *arqâm-e terjârat-e rôznâma* روزانه تجارت ارقام, “kunalik savdo ko‘rsatkichlari”, *bohrân hâ-ye mantaqai* ایمنطقه های بحران, “mintaqaviy inqirozlar”, *bâzâr hâ-ye nâpâydar* “beqaror bozorlar”, *maâhedât-e tejâri wa tarânziti* “savdo va tranzit shartnomalari”, *bâzâr hâ-ye jahâni wa mantaqi* “global va mintaqaviy bozorlar”, *manâfe-ye eqtesâdi wa žyôpolitiki* “iqtisodiy va geosiyosiy manfaatlar”.

Dariy iqtisodiyotiga doir terminlar shakllanishida arab tilining ta’siri katta bo‘lgani ma’lum. Materiallarimiz tahlilida iqtisodiy terminlarning katta qismi arabizmlar ekani aniqlandi. Terminlar yasalishida arabcha so‘zlardan tashqari arab elementlari ham ishtirok etadi. Masalan, [yayr-e] ya’ni, -siz qo‘shimchasini ifodalash uchun qo‘llaniladi: *mâliyât-e yayr-e mostaqim* “aksiz”.

هند جهت رسیدن به اهداف مطروحه، نقش فعال در توسعه بندر چابهار ایفا می‌کند تا از **منافع ژئوپلیتیکی و اقتصادی** خویش محافظت کند<sup>31</sup>.

*Hend jehat-e rasidan ba ahdâf-e matruha, naqš-e faol dar tawsea-e bandar-e čâbahâr iyfâ mê konad tâ az **manâfe’-e žyupolistiki wa eqtesâdi-ye xêš** mohâfaza konad.*

‘Belgilangan maqsadlarga erishish uchun Hindiston o‘zining **geosiyosiy va iqtisodiy manfaatlarini** himoya qilish maqsadida Chabahr portini rivojlantirishda faol rol o‘ynamoqda’.

<sup>30</sup><https://8am.media/fa/structural-mismatch-between-economic-capacity-and-consumption-patterns-in-afghanistan/>

<sup>31</sup><https://8am.media/fa/can-chabahr-port-replace-pakistani-ports/>

## XULOSA

Birikma terminlar oddiy soʻz birikmalaridan farqli ravishda erkin kombinatsiya emas, balki terminologik tizim doirasida semantik jihatdan bir butun birlik sifatida qabul qilinadi. Birikma terminlar dariy tilida termin yasashning muhim vositalaridan biri boʻlib, ular sintaktik usul orqali hosil qilinadi va komponentlar soniga koʻra turli struktur modellarni tashkil etadi. Gibril birikma terminlar “dariy + arab”, “dariy + yevropa”, “arab + dariy”, “arab + arab”, “yevropa + dariy”, “yevropa + arab” va “arab + yevropa” oʻzlashmalari modelida birikib kelgan holda uchradi. Oʻz oʻrnida ular ikki komponentli va uch va undan ortiq komponentli birikma terminlarga ajratildi. Miqdor jihatdan ham birikma terminlar ustunlikni egallamoqda 79ta (35.1%).

## ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES)

1. Cabré, M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications. Amsterdam: John Benjamins, 1999.
2. Dadaboyev H. Oʻzbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019. – 118 b.
3. Ermatov I. Oʻzbek tilshunoslik terminologiyasi. Monografiya. – Toshkent, 2021.
4. Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент: Фан, 1996. – 46 б.
5. Kageura, K. The Dynamics of Terminology: A Descriptive Theory of Term Formation. Amsterdam: John Benjamins, 2002.
6. Mustafakulov Sh. I. Iqtisodiy atamalarning izohli lugʻati. – T., 2019.
7. Пейсиков Л. С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд-во МГУ, 1973. – С. 96.
8. Qosimov N. Oʻzbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasi masalalari. – Toshkent, 1985.
9. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. Darslik. – Toshkent: Universitet, 2006.
10. Sager, J. C. A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam: John Benjamins, 1990.
11. Temmerman, R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. Amsterdam: John Benjamins, 2000.
12. Ubaydullayeva U. A. Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostoni terminlarining lingvo-kognitiv tahlili. Filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Jizzax, 2024. – 137 b.
13. Wüster, E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. Berlin: Springer, 1979.
14. عمید ح. فرهنگ فارسی. تهران. – ۱۳۸۹. ص ۱۰۴۲
15. <https://cyberleninka.ru/article>